

**FITRATNING XORIJ MATBUOTIDA E'LON QILINGAN
PUBLISISTIKASIDA IJTIMOIY – SIYOSIY
MASALALARINING AKS ETISHI**

Boltaboyeva Shamsiyo Hamidullaevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938) ulug' shoir va yozuvchi dramaturg va adabiyotshunos olim, davlat va jamoat arbobi bo'lishi bilan birga bir qator maqola, lavha, xabar va nomalar muallifi bo'lgan mohir publisist hamdir. Shuningdek ulug', adib va olim 1917-1918 yillarda Samarqandda nashr qilgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qilgan.

Fitratning publisistik maqola va lavhlari, xabar va nomalari 1910 yildan keyin yaratila boshladi. Unga qadar Fbdurauf Fitrat Buxorodagi Mirarab madrasasini hatm qilgach, Mijmar tahallusi bilan fors tilida she'rlar yoza boshlagan. Fitratning she'rlari o'z davrida shuhrat topib, zamonasining e'tiborli ziyolilari tomonidan tazkiralarga kiritilgan. Hoji Nematulloh Muhtaram o'z tazkirasida Fitratni "Hoji Abdurauf" sifatida tilga oladi¹. Fitratning publisistik yo'naliishdagi asarlari dastlab Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olayotgan paytida nashr etilgan. Nisbatan birinchi asari Istanbulda nashr etiladigan. "Ta'rifi muslimin" gazetasi Buxoro amirining vaziri Nasrullohga maktub tarzida yozilgan. Mana shu davrda "Sirot ul-mustaqim" ("To'g'ri yo'l") jaridasining ishlariga ham faol qatnashgan. 1912 yildan Buxoroda chiqadigan "Buxoroi sharif" hamda uning ilovasi hisoblangan "Turon" nomli gazetalarda ham maqolalalari bosilgan. 1917 yildan so'ng "Hurriyat" gazetaning muharrirligi ishiga o'tgach, gazetaning deyarli har bir sonida uning xabar, yo'qlov, she'r va sochmalari e'lon etiladi.

Fitratning Turkiyaga o'qishga borgani to'g'risidagi ma'lumotlar E.Karimov, N.Karimov, B.Qosimov, A.Aliyev, I.G'aniyev ishlarida 1909-1913 yillar deb belgilangani uchun ham maqolamda ushbu ma'lumotlarini ko'rib chiqdim.

Lekin ayrim manbalarda 1910-1913 (S.Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixi" kitobida), 1909-1914 yillar (H.Boltaboyev "Fitrat va jadidchilik") deb belgilangani ham ma'lum.

Fitrat Eron orqali Istanbulga o'qishga kelgach, Buxorodan o'zi bilan birga tahsil olish uchun kelgan Muqimiddin, Usmonxo'ja, Abdulaziz, Sodiq Ashur o'g'li bilan birga "Buxoro ta'limi maorif jamiyati"ni tuzadi. Ma'lumki, 1909 yil 18 iyunda Buxoro yoshlari tomonidan "Tarbiyati atfol" ("Bolalar tarbiyasi") nomli yashirin jamiyat tashkil qilingan edi.

S.Ayniyning ma'lumot berishicha, "Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga

¹Hoji Ne'matulloh muhtaram. Tazkira ush-shuaro. – Dushanbe: 1975, - Sah.319.

o‘quvchilarini yubormoq chorasiga kirishmoq” edi. Buxoro ta’mimi maorif jamiyatni XX asr boshlarida Buxoro jadidlari tomonidan ta’sis qilingan “Tarbiyati atfol” jamiyatining Istanbuldagi sho‘basi, ya’ni bo‘limi sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

“Buxoro ta’limi maorif jamiyatni Nizomnomasining so‘zboshida “Jamiyat 1909 yil 26 Yekim (sentyabr)da Istanbulga Abdurauf Fitrat va Usmon Xo‘ja kabi Buxoroli jadidchilar tomonidan qurilgan”² deb yozilgan. Fitrat Istanbulga kelgach, o‘qishni davom ettirish uchun “Voizon” madrasasiga kirgan va doimiy yashab turish uchun Sultontepadagi O‘zbeklar tekkasi (dargoh)iga joylashgani H.Boltaboyev tomonidan aniqlangan³.

Fitrat Istanbulda ekan, faqatgina tahsil bilan cheklanib qolmagan, u Istanbuldagi adabiy va ilmiy muhitga faol aralashgan. Rossiyanidan kelib, Yosh turklar jamiyatida ma’ruzalar o‘qigan Ismoil Gaspiranskiyning darslarida qatnashgan. O‘zi kambag‘al talaba bo‘lishiga qaramay, bir necha asarlarni mana shu Istanbul davrida yaratgan. Hatto ayrim asarlari uning o‘zi hisobidan nashr qilingan. Fitratning “Munozara” (1910), “Sayha” (1912), “Hind sayyohi” bayonoti (1912) kabi kitoblari shu davrda nashr qilingan. Ulardan biri ‘Buxoro vaziri Nasrullohbek Parvonachi afandi hazratlarina ochiq maktub” bo‘lib, fors tilida yaratilgan bu asar Ahmad Tojiddin va Ya’qub Kamol tomonidan nashr etilayotgan “Ta’rifi muslimin” (“Muslimlarning ta’riflari”) nomli “diniy, siyosiy, tarixiy, falsafiy va olam ahvoldidan xabardor qiluvchi haftalik majalla”da e’lon qilingan. Ushbu xatga “Buxoroli Abdu-r-rauf” imzosi qo‘yilgan. Maktub fors tilida bitilgan bo‘lib, “Ey vazoratpanoh, biz tartiboti jadidaga muhtojmiz” shiori bilan boshlanadi. Bu ochiq xat Amir Olimxon Buxoro taxtiga o‘tirgandan keyin bir qancha o‘zgarishlar, islohotlar qilishga va’da bergani va uning bosh vaziri (vazoratpanoh) lavozimiga Nasrulloh Parvonachini tayinlanishi munosabati bilan yozilgan⁴.

Bundan tashqari Istanbulda yozilgan boshqa bir maqolasi (bu ham fors tilida) “Taraqqiy va tajaddud” (“Taraqqiyot va yangilanish”) deb nomlangan bo‘lib, Mahmud Tarziy (1865-1933) muharrirligida 1911 yildan Kobulda chiqa boshlagan “Sirojul-laxbori afg‘oniya” (“Afg‘oniston nurli xabarlari”) gazetasida e’lon qilingan. Maqolaga “Istanbul: Abdu-r-rauf Fitrat” imzosi qo‘yilgan bu maqola 1913 yilning 16 noyabrida nashr etilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida chiqqan “Samarqand” gazetasining 1913 yil 13 sentyabrdagi 44-sonidan ko‘chirilib bosilgan.

Bu ikki maqoladan tashqari Fitratning bir necha maqolalari mana shu davrda “Buxoroi sharif” gazetasida chop qilingan. Ular “Maktub ba idora” (“Idoraga maktub”), “Maxoriju-1-huruf” (“Harflarning maxrajlari”), “Qavodi qiroat” (“Qiroat qoidalari”) kabi maqolalardir. Shu bilan birga Behbudiy muharrirligida chiqqan. “Oyna” jurnalida “Manfaat” (1913yil 16, 30 noyabr), “Hayot va g‘oyali hayot”

² Turkistanda Yenilik Hazireteleri ve ihtilaller: 1900-1924. Birinci Baski: 2001. Haarlem, Holland, S. 467-483.

³ Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.: 2007.B.23.

⁴ Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.: 2007.B.24.

(“Hayot va hayot va g‘oyasi”, 1913 yil 14,21 dekabr) maqolalari chop qilingan.

Abdurauf Fitrat o‘zi muharrirlik faoliyatini o‘rganishda alohida manba sifatida xizmat qiladi.

Fitrat xorijda o‘zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida bir qancha publisistik maqolalar e‘lon qilingan. Ular mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’rifiy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, Fitratning publisistlik va muharrirlik faoliyatini o‘rganishda alohida manba sifatida xizmat qiladi.

Fitrat xorijda nashr etilayotgan va o‘ziga madrasa talabligidan yaxshi tanish bo‘lgan “Turk yurdu”, “Sirot ul-mustaqim” va “Ta’rifi muslimin” kabi gazeta va jurnallar bilan hamkorlik qila boshladi. Ayniqsa, turk shoiri Mehmet Akif muharrirligida nashr etilgan “Sirot ul mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) jurnalni ishlarida faol qatnashdi. Jurnalning 1911-1914 yillardag sonlarida Buxoro hayotiga oid o‘nlab maqola va xabarlar berilgan. Ularning ko‘pchiligi buxoroli muxbir G‘iyosiddin Hasaniy qalamiga mansub. Biroq Buxorodan yuborib turilgan bu materiallar Abdurauf Fitrat Tahriridan o‘tgan keyin nashr etilgan. “Ta’rifi muslimin”dagi “Buxoro vaziri Nasrullohbek Parvonachi hazratlarina ochiq maktub”ida ham Buxoroning “qora xarobalar va o‘t orasida qolg‘on parishonhol ahvoli” bayon qilinadi.

Bu dardni yengillashtirish chorralari Buxoro Amiri Olimxonga va uning vaziri Nasrullohbekka bog‘liq ekani aytildi: “Har qancha ko‘z va qulog‘ingizni berkitsangiz ham, bu qadimiy islom millatining faryodi va muqaddas vatanimizning xarobaligiga achinmay tura olmaysiz.. Millatimiz va yurtimizni shu holga keltirib qo‘ydikki, dunyoning burchagida eng qiyin kunlarda tashvish chekib yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga qon yig‘lamoqdalar”. Bunga o‘xshash voqealar “Munozara” asrida ham tasvirlangan edi. Fitrat birgina mamlakatdagi ahvolini tuzatishda birgina bosh vazir ojiz ekanini tushunib, bevosita amirming o‘ziga qarata murojaat qilib yozgan: “Ey, Buxoro millatining mehribon otasi!..

Islomiyat saltanatining zaifligi mehribon qalbimizga va sohibi davlatimizga aniq va ravshan monanddirki, bugun yo erta dini islomni millat dushmanlari qaro kunlarga solarlar. Bu jinoyatchilarining vazifai avvali dini islomga xusumat bo‘lib, yaqin zamonlar bizdan dinimizni bark qilishni talab qilarlar, imomimizni ko‘kga, azonimizni qo‘ng‘iroqqa, masjidimizni cherkovga almashtirmoqdan boshqa chora qolmas”. Birgina amir va uning o‘zaro hamda ullamolari bilan ish ko‘ngildagidek natijalanishi mumkin emasligin tushunib yetgan Fitrat shu payitdayoq muhtaram dindosh birodarlarga ham murojaat qiladi, “bu tanazzul, ya’ni nimaki boy berilayotgan bo‘lsa, musulmonlarning unsizligi va harakatsizligi natijasidir... Bu qadar g‘aflat va tanballikda beg‘ayrat va jaholatda o‘tirganimiz bas, yetar, bu asl dinimizning nobud bo‘lishi, muqaddas vatanimizning shunday poymol etilishini kamoli basharaflik bilan qabul qilsak, buni na shariat, na-da hayot qabul qiladi”, - deb yozadi Fitrat. Bunga o‘xshash fikrlar, ya’ni o‘z yurtini ozod ko‘rish istagi “Hind sayyohi bayonoti” qissasida

ham aks etgan edi. Qissada Fitrat hindistonlik hindistonlik sayyoh nomidan Buxorodagi tartibotlarni, hayot tarzini kuzatadi va ko‘zga tashlanadigan barcha kamchiliklarni ochiq bayon qilib bergen edi.

Fitratning talabalik davrida yozgan go‘zal va muhammaslarida ham, “Sayha” to‘plamiga kirgan va Istanbul davrida bitilgan she’rlarda ham aks vatanparvarlik ruhi aks etgan edi.

Demak, Fitratning 1910 yildan boshlab yaratilgan va xorij matbuotida e’lon qilingan publisistik maqolalarda uning she’rlari va qissalarida aytilgan vatanparvarlik tuyg‘ulari aks etgan bo‘lib, bu holat, ayniqsa, Buxoro vaziriga yozgan maktubda aniq ko‘rinadi.